



MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI INTERAKTIV O'YINLAR VA QO'SHIQLAR ORQALI O'RGATISH

¹Shakurova Nargiza

Qarshi Davlat universiteti

Lingvistika kafedrası katta oqituvchisi,

²Ro'ziyeva Shahnoza

Qarshi Davlat universiteti 2-bosqich talabasi .

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7583751>

ARTICLE INFO

Received: 18th January 2023

Accepted: 29th January 2023

Online: 30th January 2023

KEY WORDS

Bolalar, chet tili, o'qitish, bog'cha, interfaol o'yinlar, inglizcha qo'shiqlar, samarali ta'lim.

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshida bo'lgan bolalarga hozirgi kunda qiziqarli hamda samarali ta'lim metodlaridan biri hisoblangan turli hil interaktiv o'yinlar hamda qo'shiqlar orqali bolalarga chet tilini o'rgatish va uni amalda qo'llash haqida so'z yuritilgan.

Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: ***Biz uchun bolalarimizning ma'naviyati, bilimi, sog'ligi eng muhim masala. Shuning uchun davlat tomonidan maktabgacha ta'limga katta e'tibor berilyapti va bu hali boshlanishi. Sizlarning vazifangiz bolalarning ko'zidagi nurni ilg'ab olish, ularga yaxshi tarbiya berish***".

SH.M.Mirziyoyev

Maktabgacha ta'lim - yoshlarimiz ta'limi va tarbiyasining ilk bosqichi hisoblanadi. To'g'ri maktabgacha tarbiya dasturi bizning bolalarimizga noyob aqlga mos keladigan tarzda o'sishi va o'rganishiga yordam berishi kerak. Ammo bolalar kattalarnikidan farqli ravishda kelajakni, ertani o'ylab o'rganishmaydi. Ingliz tilidagi dars «shu yerda va aynan hozir» manosida o'tkazilishi kerak. Bolalar chet tilini hikoyalarni tushunish yoki o'yinlarda g'alaba qozonish orqali osonroq o'rganadilar. Agarda xohlasalar, o'zlari ishtirokidagi o'yinlar orqali o'rgangan ma'lumotlarini mustahkamlab oladilar. Bir tomondan, til bilan ifodalangan kontent bolalar hayoti, kundaligi bilan bog'liq bo'lishi kerak, boshqa tomondan, bolalarni muloqotga chorlaydigan faoliyat yoki vazifalar qiziqarli va muhim bolishi kerak. O'quvchilar dars davomida o'zlarini darsning bir qismi sifatida tushunishadi va dars jarayonida huddi asar qahramonidek o'zlarini tutishadi, harakat qilishadi. Boshlang'ich sinflarda, odatda, chet tillarni o'rganish hayotiy situatsiya va o'yinlarga asoslangan harakat usullaridan foydalangan tarzda o'rganilganda juda samarali hamda muvaffaqiyatli bo'ladi. Agar o'yinli-syujetli situatsiyalar orqali chet tili o'rgatilsa, barcha bolalar bajonu-dil ishtirok etishadi, sababi ular shu tarzda o'sha situatsiyaning bir bo'lagi ekanligini his etishadi.



Maktabgacha ta'limning maqsadi- bolani maktabga tayyorlash, o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qobiliyatlarini namoyon qilshika ko'mak berishdir. Shularni inobatga olgan holda, "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori va shu bilan birga "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Bu hujjatlarda maktabgacha ta'lim tizimi tarmog'ini yanada kengaytirish, bollarni o'qitishning zamonaviy hamda samarali metodikalaridan foydalanish va maktabgacha ta'lim muassalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash kabi masalalar aks etgan. **Bolani yoshlik chog'idan boshlab ingliz tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirish borish kerak, uni xato bo'lsada gapirishga majbur qilish kerak, ana shundagina tarbiyalanayotgan bola o'z oldidagi to'siqlarni yengib o'tib, qo'rqmasdan gapira oladi. Agarda biz chet tili darsini dars emas, balki o'yin shakliga keltirsak kichik yoshdagi bolalarni qiziqishini yanada oshiradi. Shu bilan birgalikda ularning aktivlik darajasi ham o'sib boradi.**

Hozirgi vaqtda xalqaro aloqalarning mustahkamlanishi munosabati bilan, e'tibor bolalarni chet tillariga erta o'qitish va o'rgatishga qaratilmoqda. Erta yoshda chet tilini o'rganish samarali, chunki bu bolalarni yoshligidanoq to o'lgayguniga qadar yangi bir tilni yaxshi o'zlashtira olishiga sabab bulmoqda. Bolalik taassurotlari uzoq vaqt saqlanib qoladi va birinchi tilni, keyin esa ikkinchisini o'rganish uchun ichki motivatsiyaning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Xorijiy til, umuman ona tili bo'lmagan til bolalarning tili va umumiy rivojlanishi jihatidan juda katta pedagogik salohiyatga ega.

Bolajonlarga chet tilini o'rgatishda **interaktiv(interfaol, yaniiy o'zaro ta'sir degan manoni bildiradi)** o'yin va qo'shiqlar bilan o'rgatish va ushbu o'yinlar mobaynida har bir bolani harakati uchun rag'batlantirib borish talab etiladi. Bolalar tez o'rganishadi, lekin tezda unutishadi. Shuning uchun nutqni bir necha bor takrorlab shu mavzuga doir o'yin yoki tarqatmalar orqali bolalarning esida qolishiga yordamlashish mumkin.

Bolalar o'yinlari — bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biri. Bolalar o'yinlari bolalarning har tomonlama kamol topishiga katta ta'sir qiladi. O'yin vaqtida sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot va boshqa ruhiy jarayonlar ishtirok etadi.

Bog'cha va maktab yoshida o'yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi tufayli bola atrof olamni ham o'yin orqali kashf etadi. Agar xorijiy tillarni ham o'yinga qorishtirgan xolda o'rgatilsa bu til ko'nikmalarining o'zlashtirilish samaradorligini bir necha barobarga oshiradi.

Vaziyat/ Ta'limiy faoliytlar

Har qanday vaziyat va faoliyatlar zahirida ingliz tilini o'rgatish yotganligi tufayli, ushbu faoliyatlar ravon va tushunarli tarzda ingliz tilida olib borilishi maqsadga muvofiq. Ona tilidagi muloqotni qisqartirish va asosiy urg'uni ingliz tiliga berish kerak. Albatta murabbiyning harakati, imo ishorasi va ingliz tilida ravon nutqi va gapirish ohangi bilan bolani o'ziga jalb qila olishi til o'rgatishdagi eng birinchi va asosiy muvaffaqiyatlardan hisoblanadi. Xususan, til o'rgatuvchi murabbiylarning **"Playing with blocks or legos"** (blokklar yoki lego vositalari bilan o'ynash), **"Dressing"** (turli ertak qahramonlari kiyimlarini kiyish), **"Animals"**



and their sounds” (hayvonot olami va ularning tovushlari bilan tanishish), *“Crafts”* (qo’l mehnati yordamida turli narsalar yasash), *“Sing a song”* (qo’shiq kuylash) kabi ta’limiy faoliyat turlaridan foydalanishi yosh bolalarda til o’rganish ko’nikmalarini shakllantirishdagi maqbul usullardan hisoblanadi. Biz ushbu faoliyatlardan foydalangan holda bolalarning so’z boyligini, tasavvurini va ijodiy fikrlashni kengaytirish va rivojlantirib borish imkoniga ega bo’lamiz.

“Playing with blocks or legos” Bolalarga ingliz tilida shakllar, ranglar va raqamlar haqida tushuncha berish maqsad qilinganda aynan blokklar, kubiklar hamda lego o’yini orqali amalga oshirilganda o’zlashtirish natijasi yaxshiroq bo’lishi amaliyotda o’z isbotini topgan. Blokklar, kubiklar va lego o’yinchoqlarini o’ynash bolani fikrlashga undaydi va biror ish qilishda uning ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqaradi, shu bilan birga bu o’yinlar vositasida bolaning ingliz tilida lug’at boyligini oshirish imkoniyati ham paydo bo’ladi. O’yinlarda so’z boyligini ingliz tilida savol berish hamda asosiy tushunchalarni ko’rsatma orqali yetkazish bilan amalga oshiriladi. Bola bu o’yin orqali sanashni va tartiblashni o’rganadi: **How many blocks are there?** (u yerda nechta kubik bor?) **Shall we put the blue ones here?** (bu yerga ko’k kubikni qo’yamizmi?) Narsalar joylashuvini predloglar orqali o’rganadilar: **in**(ichida), **on**(ustida), **under**(ostida), **below**(pastda), **behind**(orqasida), **next to**(yonida). O’lchov birliklari haqida tushuncha ega bo’ladilar: **big**(katta), **small**(kichik), **long**(uzun), **short**(qisqa). Quyidagi so’zlar yordamida bola yasayotgan narsalarga ko’rsatma beriladi: **Find the the red block, please!**(qizil kubikni toping!), **Pull the blue one, please!**(ko’k kubikni torting!), **push them!**(ularni suring!), **Build the house, please!**(uy quring!) **make the car, please!**(mashina yasang!). Bola yasayotgan narsa va shakllarga ta’rif beriladi: **square**(kvadrat), **rectangle**(to’g’ri to’rtburchak), **tower**(minora), **house**(uy), **castle**(saroy), **garden**(bog’)

“Dressing” ta’limiy faoliyat turi orqali bolalarga dunyo xalqlarning ertak qahramonlarini tanishtirish mumkin. Ertak qahramonlarining obrazlarini bolalarga tanishtirilayotganda ularning kiyimlarini kiydirish va rol ijro etish ingliz tilida olib boriladi va bu faoliyat yordamida bolaning ingliz tili so’z boyligi ortadi va bola tasavvuri, dunyoqarashi kengayadi. Ushbu ta’limiy faoliyat orqali bolalar, inson tana a’zolariga hamda kiyim kechakka oid bo’lgan so’zlarni o’rganadilar va amaliyotda qo’llash imkoniga ega bo’ladilar. Inson tana a’zolari: **head**(bosh), **arms**(qo’llar), **hands**(qo’llar), **foot** (feet)(oyoqlar), **legs**(oyoqlar), **eyes**(ko’zlar)... Kiyimlar: **dress**(qizlar ko’ylagi), **shirt**(og’il bolalar ko’ylagi), **t-shirt**(futbolka), **shoes**(poyafzal), **slippers**(shippaklar), **cap**(kepka), **belt**(kamar), **gloves**(qo’lqoplar) ... Buyruq ham tana a’zolariga urg’u bergan xolda beriladi: **put your arms through here** (qo’lingizni shu yerga kiriting), **tie this around your waist/wrist** (belingizga taqing), **put these on your feet** (bularni oyog’ingizga kiying) — **first your right foot** (avval o’ng oyog’ingizdan boshlang), **then your left foot** (so’ng chap oyog’ingizga), **put this over your head** (boshingizga kiying). Shuningdek, bolalar ertak qahramonlarini o’z tassavurida jonlantiradilar, obrazga kirishadilar hamda asosiy so’z va so’z iboralarini qo’llashni o’rganadilar. Bu albatta ingliz tilida so’zlarni tinglab tushunish va yod olingan so’zlardan jumlar tuzish orqali gapirish mahoratini ham rivojlanishiga xizmat qiladi. Mavjud qahramon kiyimlari tasvirlanadi (**fairy** (pari), **princess** (malika), **pirate** (qaroqchi), **king** (qirol), **clown** (masharaboz)) hamda kiyim kiyishga doir so’z iboralarini qo’llaniladi: **put on** (kiyining!), **zip**



up (zamokni qadang!), **do the buttons up** (tugmalarni qadang!), **unbutton** (tugmalarni yeching), **unzip** (zamokni tushiring).

“Animals and their sounds” ta’limiy faoliyat turi vositasida ingliz tilida hayvonot va hasharot olami tanishtiriladi. Bolalar hayvonlar ishtirok etgan turli qissa va hikoyalarni ham jon qulog’i bilan tinglaydilar. Hayvonlarning rangli surati tasvirlangan rasmlar orqali ingliz tilida hayvonlar va ularning harakatlari, tovushlari haqida o’rganish ham bolalar uchun zavqli bir mas’ulot hisoblanadi. Uy hayvonlari **domestic animals : dog, cat, duck, cock, hen, chicken, cow** ... Yovvoyi hayvonlar **wild animals : lion, tiger, wolf, rabbit, fox, snake, deer** ... Bolalarning ingliz tilida hayvon va hasharot nomlarini o’rganish va murabbiy bilan birga ularning haratlariga taqlid qilish bolaga olam-olam zavq bag’ishlaydi.

Hayvonot	Qanday tovush beradi	Tarjima
Dogs	bark	It
Cats	mew, purr, meow, hiss, yowl	Mushuk
Caws	moo, low,	Sigir
Ducks	quack	O’rdak
Bees	hum and buzz	Asalari
Lions	roar, growl	She’r
Chicks	cheep	Jo’ja
Bo’rilar	howl, cry, yell	Wolves

Bu o’yinni qo’shigi bilan yakunlasak bo’ladi **“Old MacDonald had a farm”**

Old MacDonald had a farm

Ee i ee i o

And on his farm he had some cows

Ee i ee i oh

With a moo-moo here

And a moo-moo there

Here a moo, there a moo

Everywhere a moo-moo



Old MacDonald had a farm

Ee i ee i o

Old MacDonald had a farm

Ee i ee i o

And on his farm he had some chicks

Ee i ee i o

With a cluck-cluck here

And a cluck-cluck there

Here a cluck, there a cluck

Everywhere a cluck-cluck

Old MacDonald had a farm

Ee i ee i o

Old MacDonald had a farm

Ee i ee i o ...

“Crafts” Q’ol mehnati: narsalar yasash va bezak berish ta’limiy faoliyat turi. Bola tabiatan qiziquvchan ekanligi hammaga ma’lum ammo bolaning rivojlanish jarayoni bir paytda bir xil tarzda kechmasligini ham yodda tutish kerak. Ayrim bolalar ijtimoiy kelib chiqishi, tabiati va qiziqishidan kelib chiqqan xolda rivojlanish bosqichi qolganlarnikidan farq qilishi mumkin. Ba’zi bolalar sokin bo’ladilar ko’pchilikka tez qo’shib keta olmaydilar ammo ular kuzatuvchan bo’lganligi tufayli ijodkorlik qobiliyati yaxshigina rivojlangan bo’ladi. Ana shunday bolalar qo’l mehnati vositasida narsalar yasash faoliyatiga jalb qilinsa ulardan shubhasiz haqiqiy san’at asar ixtirochilari yetishib chiqadi. Qo’l mehnati orqali bolalarga rang barang narsalar yasash o’rgatilganda, bolaning ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanadi va bu faoliyat ingliz tilida olib borilganda ingliz tili lug’at boyligi oshadi va tinglab tushunish hamda gapirish mahorati ham rivojlanadi. Demak, bu ta’limiy faoliyat turi qo’g’oz parchalaridan shakllar yasash, bo’yoqlar yordamida shakllarga rang berish yoki plastilindan turli narsalar yasash bo’lishi mumkin. Har qanday jarayon ingliz tilidagi so’z va so’z iboralaridan xoli bo’lmasligi kerak. Har bir vosita va ashyo nomi bolalarga ingliz tilida yetkazilishi kerak: **paint(bo’yoq), paintbrush(bo’yoq chyotkasi), crayon(qalam), marker(marker) card (karta), paper(qog’oz), crepe paper(krep qog’oz), shiny paper (yaltiroq qog’oz), tissue paper(to’qima qog’oz), newspaper (gazeta), glue(yelim), scissors (qaychi), cotton wool (paxta yungi), fabric (mato), feathers (patlar).** Ko’rsatmalar ingliz tilida olib borilishi kerak: **paint (boyamoq), draw(chizmoq), colour (rang bermog), smudge(chaplamoq) blow(puflamoq), copy(ko’chirmoq), pour(quymoq), make(yasamoq), cut(kesmoq, qirmoq), stick (yopishtirmoq), decorate (bezamoq), hang (it) up (ilib qo’yimoq).**



“Sing a song” (birgalikda qo’shiq kuylash). Bolajonlarning eng yoqimli mashg’ulotlaridan biri. Bolalar yoshlikdan qo’shiq kuylashga moyil bo’ladilar va qo’shiq kuylash vositasida bolalar nafaqat so’z boyligini orttiradilar shu bilan birga ular so’zlarni ohangga solib aytishni o’rganadilar. Kichik yoshdagi bolalar orasida kuylanadigan inglizcha qo’shiqlarining eng ommabop turlaridan biri **“Rain, Rain go away”** qo’shig’idir.

Rain, rain, go away

Come again another day

Daddy wants to play

Rain, rain go away...

Ta’limiy o’yin soyabonlar, yasama bulut hamda sun’iy yong’ir vositasida amalga oshirilsa bolajonlar faolligi oshadi natija samaradorligi ortadi.

Ingliz tilini qoshiqlar orqali organish usullari.

Bolajonlar qiziqarli qo’shiqlarni tinglash, so’ng ularni yod olib aytish yoki hirgoya qilish orqali ham yangi so’zlarni oson eslab qoladilar va bu usul ularning chet tili tallafuzida ham samarali ta’sir ko’rsatadi.

“ABC” song

Alifbo faqat harflar to’plami ekanligini unuting! Ushbu qo’shiq uni har bir harf uchun o’z mavzusi bo’lgan yorqin birlashmalarga aylantiradi.

Shunday qilib, bolalar ko’plab oddiy so’zlarni eslab qolishi mumkin.

A, B, C, D, E, F, G

H, I, J, K, L, M, N, O, P

Q, R, S, T, U, V

W, X, Y, Z

Now I know my ABCs.

Next time won’t you sing with me?

A, B, C, D, E, F, G

H, I, J, K, L, M, N, O, P

Q, R, S, T, U, V

W, X, Y, and Z

Now I know my ABCs.

Next time won’t you sing with me?

Alifboni yodlab boldingizmi? Endi navbat ranglarga!

“I see something blue”

Ushbu qo’shiqda kichik interaktiv tanaffuslar mavjud bo’lib, unda bola rasmda berilgan rangdagi narsalarni topishi kerak. Kelajakda siz u bilan shunga o’xshash o’yinni o’ynashingiz mumkin: rangni nomlang va uni birgalikda qidirib toping.



Blue!

I see something blue.

Blue!

I see something blue.

Blue, blue, blue, blue...

I see something blue.

Find something blue!

Yellow!

I see something yellow.

Yellow!

I see something yellow.

Yellow, yellow...

I see something yellow.

Find something yellow!

Red!

“Ten in a bed”

Raqamlarni tezda o'rganish uchun 10 ta maymuncha haqida zavqli qo'shiq bor. Har bir kupletda ulardan biri to'shakdan yiqilib, maymunchalar soni kamayib boradi.

Jozibali ohang va quvnoq video bolaga ingliz tilida hisoblashni o'rganishga yordam beradi.

Here we go!

There were ten in the bed

and the little one said,

“Roll over, roll over.”

So they all rolled over and one fell out.

Nine!

There were nine in the bed

and the little one said,

“Roll over, roll over.”

So they all rolled over and one fell out.

Eight!

There were eight in the bed

and the little one said,

“Roll over, roll over.”

So they all rolled over and one fell out...

“One little finger”

Ushbu qo'shiqdan siz tana qismi (barmoq, bosh, burun, chin, arm, oyoq, oyoq) va yo'nalish (yuqoriga, pastga) mavzusidagi so'zlarni o'rganasiz.

One little finger, one little finger, one little finger.

Tap tap tap.

Point your finger up.

Point your finger down.



Put it on your head. Head!
One little finger, one little finger, one little finger.
Tap tap tap.
Point your finger up.
Point your finger down.
Put it on your nose. Nose!
One little finger, one little finger, one little finger.
Tap tap tap.

Oddiy harakatlar yoki raqs bilan qo'llab-quvvatlanganda yangi so'zlarni o'rganish yanada samaraliroq bo'ladi.

Qo'shiq paytida bola video orqali harakatlarni takrorlaydi.

“Twinkle, twinkle, little star”

Va nihoyat, ingliz tilidagi eng chiroyli **Lullaby** (o'zbekchada “Alla”). Yotishdan oldin uzoq muddatli xotira, m'a'lumotni o'zlashtirish uchun eng yaxshisidir.

Twinkle twinkle little star.
How I wonder what you are.
Up above the world so high.
Like a diamond in the sky.
Twinkle twinkle little star.
How I wonder what you are.
Twinkle twinkle little star.
How I wonder what you are.
Up above the world so high.
Like a diamond in the sky.
Twinkle twinkle little star.

Bunday **Lullaby** bolaga qanday ta'sir qilishini tasavvur qiling! Bu nafaqat chalg'itadi va tinchlantiradi, balki ingliz tili ishtirokidagi so'zlar bilan orzu qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni aytolamanki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ularning davrida o'yinqaroq, qiziquvchan va harakatchangligini hisobga olgan holda ularni turli xil o'yin va qiziqarli mashg'ulotlarga jalb etib yangi tilni o'rgatilsa, bolajonlarning chet tilini o'zlashtirishi samaraliroq bo'ladi. Mashg'ulotning qanchalik qiziq bo'lishi va bolalarni mamnun qila olishi esa pedagogning mahoratiga bog'liq.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'riida”gi PQ-4312-sonli qarori
2. F.Ismatova, D.Xakimova, D.Qodirova MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALAR UCHUN CHET TILLARINI O'QITISH METODLARI HAMDA ULARDAN FOYDALANISH USULLARI.



3. Юсупов, Л. С. Bolalarni ilk yoshida xorijiy tillarni o'rgatishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati: Muammo va yechimlar / Л. С. Юсупов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 26 (316). — С. 339-343. — URL: <https://moluch.ru/archive/316/72186/> (дата обращения: 14.11.2022).
4. <https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha-ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o-qitishningzamo>
5. <https://lex.uz/docs/5431845>
6. <https://uz.m.wikipedia.org>
7. <https://www.englishdom.com/blog/top-10-anglijskix-pesen-dlya-detej/>
8. <https://supersimple.com>